

## FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA FE'L SO'Z TURKUMINING QIYOSIY JIHATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7468693>

Yusupova Manzura Qurbanovna

Andijon davlat chet tillari instituti

Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi



ELSEVIER



Received: 20-12-2022

Accepted: 21-12-2022

Published: 22-12-2022

**Abstract:** Mazkur maqolada fransuz va o'zbek tillarida fe'l so'z turkumining semantik jihatdan o'hshash va farqli jihatlari qiyoslanadi.**Keywords:** ko'nikma, muloqot, aqliy rivojlanish, idrok qilish, mustaqil fikr yuritish, multimedia, ro'li o'yin... fe'l semantikasi, mustaqil va ko'makchi fe'llar, valentlilik, sub'ekt, shahssiz..**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 20-12-2022

Accepted: 21-12-2022

Published: 22-12-2022

**Abstract:** В данной статье сравниваются семантические сходства и различия группы слов глагола во французском и узбекском языках.**Keywords:** семантика глагола, независимые и вспомогательные глаголы, валентность, подлежащее, безличное..**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 20-12-2022

Accepted: 21-12-2022

Published: 22-12-2022

**Abstract:** This article compares the semantic similarities and differences of the group of words of the verb in French and Uzbek..**Keywords:** verb semantics, independent and auxiliary verbs, valence, subject, impersonal.....**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Ma'lumki, tillarni qiyosiy o'rganish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Shu bois, biz ham ushbu maqolamizda turli tizimga oid fransuz va o'zbek tillarida fe'l so'z turkumining o'xshash va farqli jihatlarni qiyosiy o'rganishga harakat qilamiz.

Darhaqiqat, qiyoslash jarayonida umumiy va xususiy alomatlar borligi aniqlaniladi. Xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalar, til fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisini, leksikologiyasi va semasiologiyasi kabi sohalarini puxta bilishi kerak. Ayniqsa bunda o'z ona tilisi bilan qiyoslab o'rgansa til qonuniyatlari mukammalroq o'zlashtiriladi. [6.3]

Dastlab fe'l semantikasiga nazar tashlasak, fransuz va o'zbek tillaridagi fe'llar umumiy mazmuniga ko'ra bir-biriga monand keladi: ular ish-harakatni, xolatni, munosabatni anglatadi. Mustaqil va ko'makchi, shaxsli va shahssiz, o'timli va o'timsiz kabi fe'l leksik grammatik guruxlari ajratiladi.

Mustaqil va ko'makchi fe'llar. Fransuz tilida ham o'zbek tilida ham maxsus ko'makchi fe'llar yo'q, lekin ayrim mustaqil fe'llar muayyan xolatlarda desementizasiyalashib quruvchi funksiya bajaradi. Har ikki tilda ko'makchi fe'llarning 2 tipi farqlanadi: xokim so'z bilan yagona gap bo'lagi xosil etuvchi sof ko'makchi fe'llar, grammatik morfema tarkibiga ajralib ifodaga kiruvchi yordamchi fe'llar o'zbek tili: yoza olaman, (j'ai fait) [4.32]

Fransuz tilida ko'makchi fe'llar ancha ko'p hamda gapning grammatik qurilishida katta rol o'ynaydi. Bu esa tildagi mavjud umumiy analitik tendensiya bilan bog'liq.

O'zbek tilida sof ko'makchi fe'l «bo'lmoq, ayrim paytlarda ko'makchilar qatoriga «yetishmoq, kelmoq (imperativ shaklda) kiradi. Fransuz tilida ko'makchi fe'llar tizimi keng, unga ko'makchilar kiradi:

A) Etre va avoir fe'llari. Avoir fe'lini ko'makchi funksiyasida qo'llash – fransuz tili harakterli xususiyatlaridan biridir. U murakkab kesim tarkibida yordamchi fe'l sifatida murakkab zamon shakllarini xosil qilishida ishtirok etadi: j'ai fait, j'aurai fait.

O'zbek tilida esa analitik kelasi zamon "olmoq" fe'li yordamida xosil bo'ladi.

B) Murakkab fe'l shakllari xosil etuvchi, "aller" va "venir" fe'llari: je vais venir, je viens d'arriver, lekin maqsad hamda tus ma'nolari bilan keluvchi aller venir faire qch; venur a faire ham xosil etadi.

V) Kauzatuv konstruksiyalar xosil etuvchi faire va laisser fe'llari je fais faire, je laisse faire. Bunga voir fe'li ham kiradi, chunki u ko'pgina xollarda yordamchi daraja funksiyasini bajaradi:

Il se vit attribuer un prix – u mukofot bilan taqdirlandi. – Он награжден премией.

G) Pouvoir, vouloir, devoir modal fe'llari modal va zamon ma'nolariga ega bo'lgan murakkab kesim xosil etadilar. O'zbek tilida esa muayyan shakllar shaxssiz predikativ shakllar orqali ifoda etiladi (mumkin, kerak, zarur va b.)

Uch valentli gruppalar. Barcha tillarda fe'llarning valentli xususiyatlariga ko'ra ularning guruxlari ajratiladi. Boshqacha qilib aytganda gaplarning substantiv (sub'ekt va ob'ekt) bo'laklari bilan bog'lana oladigan fe'llar. Valentlilik fe'lning semantik va grammatik xususiyatlari bilan bog'langan. Bu xususiyatlarga sub'ekt-ob'ekt munosabatini aks ettiruvchi kategoriyalar: shaxs va daraja kiradi. Valentlilik xususiyatlariga ko'ra quyidagi fe'l guruxlari ajratiladi.

1. A valentli (sub'ektsiz, shaxssiz) fe'llar. Bular to'liq ma'noli ega bilan birikmaydilar. M. : pleuvoir, yomg'ir yog'moq.

2. Bir valentli (sub'ektli, o'timsiz) fe'llar. Bu fe'llar ega bilan majburiy aloqaga kirishadi. Dormir – uxlamog.

3. Ikki valentli fe'llar. Bu fe'l ega hamda to'ldiruvchi bilan majburiy aloqaga kirishadilar: ecrire – yozmog.

4. Uch valentli fe'llar. Bu fe'llar egadan tashqari vositali, vositasiz to'ldiruvchilar bilan ham majburiy aloqaga kirishadi: biror narsani kimgadir aytmoq.

Har ikki tilda 4 ta guruxga ajratilishiga qaramasdan har bir tilda ular muayyan xususiyat kasb etadi va xususan muayyan fe'lning u yoki bu guruxga aloqasi mos tushmasligi mumkin.

Fe'l valentligi uning grammatik ma'nosi bilan bog'langan bo'lsa, u xolda valentlik asosli xisoblanadi. Aks xolda asossiz deb yuritiladi. Asosli (motivirovanniy) valentlik fe'l semantikasi taqozo etgan sub'ekt va ob'ektni aks ettiradi: *envoyer qqch a qqn* - biror narsani biror kimsaga yubormoq.

Valentlikni asossiz ifodalanishi ham kuzatiladi. Bu fe'lni tashqi jixatdan semantik aloqasini aks ettiradi, xolos. *Aider qqn* - kimgadir yordamlashmoq.

Shaxssiz fe'l ko'pincha asosli bo'ladi, chunki ular sub'ektsiz xodisalarini (tabiat xodisalarini) yoki ularga tenglashtiriladigan inson psixofizik xolatini aks ettiradi. Biroq bu o'rinda tillar o'rtasidagi farq katta. Ular birlamchi shaxssiz fe'llar tarkibida kuzatiladi. O'z navbatida «birlamchi shaxssiz fe'llar tabiat xodisalarini aks ettiradi. Fransuz tilidagi shaxssiz *il pleut*, *il neige*, *il gele* fe'llariga, o'zbek tilidagi *yomg'ir yog'ayapti*, *qor yog'ayapti*, *do'l yog'ayapti* bo'lingan shakl shaxsli konstruksiyalar mos tushadi. [3.12]

Ikki til nuqtai nazardan o'xshash tengliklar ham kuzatiladi:

*qorong'u tushdi*, - *la nuit tombe*.

Bir valentli sub'ektki fe'llar har ikki tilda ham sub'ekt xolati va harakatiga ishora etadi? *Il dort*, u uxlayapti, *il marche* - u yurayapti.

Lekin har ikki tilda ham ayrim fe'llar, xususan yo'naltirilgan harakat fe'llar o'rin xoli ifodasini talab etadi: u derazaga yaqinlashyapti. -

Har ikki tilda ikki valentli fe'llar 2 xil sintaktik konstruksiyada ifoda etiladi: o'timli (ob'ekt - vositasiz to'ldiruvchi) va o'timsiz (ob'ekt - vositali to'ldiruvchi). Ikki valentli fe'llardagi vositasiz va vositali o'timlilik asoslanmagan, shuning uchun bir xil semantikali fe'l bir kichik guruxdan boshqasiga o'tib turishi mumkin, bir tilda o'timsiz va boshqa birida o'timli:

*Atteindre*-erishmoq; *eviter* - o'zini olib qochmoq, *suivre* - ortdan bormoq.

Har ikki tilda uch valentli fe'llar asosan moddiy ob'ektlarni yoki informasialarni uzatish (uzatmaslik) yoki olishni ifoda etadi. Bular dastavval berish fe'llari: *donner qch a qn* - biror kimga biror narsani bermoq; *envoyer qch a qn* biror narsani biror kimga yubormoq va b.

Fransuz tilida bir predlogni o'zi «berish va «olishni ifoda etadi. Shuning uchun yuqorida ko'rsatilgan fe'llar bu o'rinda uch valentli fe'llar gruppasiga qo'shiladi: *voler qch a qn* - biror kimni - bir narsani o'g'irlamoq; *taire qch a qn* - bir kimdan biror narsani yashirmoq.

Fransuz tilida o'timli va o'timsiz fe'llar ko'pincha shakl jixatidan bir-biriga mos tushadi va sintaktik qurilishiga ko'ra farq qiladi.

O'zbek tilida esa har ikki ko'rinishdagi fe'lning shakl farqlovchisi bo'lib: a) -m, -um, -am, -mup, -gup affikslari xizmat qiladi:

Finir - tugamoq, tugatmoq, chauffer - isimoq, isitmoq, changer - o'zgarmoq, o'zgartirmoq;

B) turli leksemalar: peser - tortmoq, chiqmoq; bruler - tutashtirmoq, yoqmoq, yonmoq.

Fransuz tilida fe'l valentliklari o'rtasidagi chegara o'zgaruvchan. Tarkibiga fe'l mayl bo'lgan sintaktik qurilma fe'l morfologik xususiyati va ma'nosi bilan bog'lanmagan.

Professor A.A.Abdualazizov aytganidek, "til dalillarini ongli ravishda o'zlashtirish, nazariy bilimlar ustida ongli ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borish ham o'z ona tilimizni, ham xorijiy tillarni amaliy o'rganishda katta yordam beradi".[1.22]

Demak, qiyosiy tipologiya fanining xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati katta, chet tili oldindan puxta bilim va ko'nikmalar olingan ona tili asosida o'rganiladi. Til o'rganuvchi ixtiyoran va beixtiyor o'z ona tilisiga chet tili o'rganish jarayonida suyanadi-o'rganayotgan til tizimini ona tili tizimi bilan solishtiradi. Kezi kelganda o'xshash joylardan foydalanadi-til o'rganuvchiga o'rganayotgan xorijiy tili va uning ona tilisidagi o'xshashlik unga tilni tez o'rganishga yordam beradi. [6.8]

Darhaqiqat, o'xshash va o'xshash bo'lmagan tillarni puxta bilishimiz zarur. Qiyolashni maqsadi xorijiy til o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Bu bilan ona tilimiz nuqtai nazaridan xorijiy til mukammalroq o'rganiladi va xotiramizda uzoq vaqt o'chmay qoladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдураззаков М.А. Очерки по сопоставительному изучению разносистемных языков. Т. 1973.
2. X.Ibragimov.A.Mamadaliyev.Fransuzcha-o'zbekcha lug'at.Toshkent-2008.
3. Mallina L.E, Andreychikova L.P, Turniyazov ``Grammaire française``Tachkent - 1979 p
4. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. М., 1975.
5. Буранов Дж.Б. Сравнительная типология английского и тюркских языков. М., 1983.

6. Anorboyeva I.O. Turli tizimli tillarda soʻz semantikasining oʻziga xos jihatlari. Andijon - 2021